

**XALQINI MA'RIFATLI QILISH UCHUN JONINI FIDO QILGAN
ABDULHAMID SULAYMON O'G'LI CHO'L PON****Raximov Xurshidbek Mansurbek o'g'li***O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada millatparvar jadid Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning xalqi va millati oldidagi o'chmas xizmatlari hamda XIX asr ohiri XX asr boshlaridagi Turkiston hayoti haqida gap boradi.

Abstract: This article discusses the indelible services of the new nationalist Abdulhamid Sulayman oglu Cholpon to his people and nation, as well as the life of Turkestan in the late 19th and early 20th centuries.

Kalit so'zlar: Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon, jadid, adib, shoir, millat, tarjimon, millatparvar, vatanparvar, adabiyot, roman, "Kecha va kunduz", she'r, ma'rifat.

Key words: Abdulhamid Sulaymon oglu Cholpon, a young man, a writer, a poet, a nation, a translator, a nationalist, a patriot, literature, a novel, "Night and Day", poetry, enlightenment.

XIX asr ohiri XX asr boshlarida Turkiston xalqlarini milliyligini, o'tmishini, urf-odatlarini yo'q qilish uchun jon-jahti bilan tirishayotgan tuzumga qarshi turish oson ish emasdi, albatta. Rus davlati boshqaruvda hukumat manfaatlarini ko'zlab siyosat yuritayotgan bir davrda ularga qarshi kurashadigan millatparvar o'g'lonlar jonini tikib bo'lsa ham xalqini ma'rifatli qilishga hamda jonajon vatani Turkistonni ozod qilishga tayyor edi. Shunday shaxslardan biri 1897-yil Andijonning Qatortarak mahallasida ziyoli oilada dunyoga kelgan Abdulhamid Sulaymon o'g'li Yunusov Cho'lpon edi. Cho'lpon haqida gap borarkan, hurmatli prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning **"Adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor, bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unitishga bizning aslo haqqimiz yo'q"**, - degan jumllalarini har bir yosh avlod yodda tutmog'i lozim.

Cho'lponning otasi Sulaymonqul bazzoz o'g'lining Dunyoviy va diniy bilimlar olishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib bergan. Hatto chet el gazetalariga a'zo bo'lgan. Bu vaqtda chet el gazetlari ancha mablag' talab qilgan. Lekin mulla Sulaymonqul o'g'lining bilim olishi uchun molini ayamagan. Abdulhamid gazet o'qishdan tashqari mustaqil ravishda rus tilini o'rgangan. Shu bilan birga ijtimoiy-siyosiy va adabiy bilimlarini sharq mumtoz shoirlari asarlarini mutolaa qilish va jadid matbuotini kuzatish yo'li bilan oshirgan. Bu esa shoirning jadidchilik harakatini yorqin

vakillaridan biriga aylanishiga sabab bo'ldi. Adib adabiy ijodini 1913-1914-yillarda Andijonning ijtimoiy va madaniy hayoti haqida yozishdan boshladi. Shundan so'ng 1914-yil Toshkentda Munavvar Qori Abdurashidxonov va Ubaydulla Xo'jayevlar bilan tanishishi ham eng muhim omillardan biri bo'ldi. 1917-yilga kelib fevral inqilobini ro'y berishi taraqqiyparvar ziyolilar dunyoqarashini yangi bosqichga olib keldi. Ya'ni ular targ'ibiy-tashviqiy davrdan amaliy faoliyat bosqichiga o'tishdi. Buning yaqqol ifodasi qilib Turkiston Muhtoriyating tashkil etilganligidir. Cho'lpon Turkiston Muhtoriyatiga atab "Ozod turk bayrami" she'rini yozdi. She'rda quyidagi jumlarlar keltirilgan:

Ko'z oching, boqing har yon!

Qardoshlar qanday zamon!

Shodlikka to'ldi jahon!

Fido bu kunlarga jon!

Adib bu bilan cheklanib qolmay, 1922-yilda "Uyg'onish", 1923-yilda "Buloqlar", 1926-yilda "Tong sirlari" hamda 1935-yilda "Soz" she'riy to'plamlarini yozdi. To'plamlari g'oyaviy-tematik yo'nalishiga ko'ra ikki guruhga ajratilgan. Bular sof lirika va ijtimoiy-siyosiy lirikalardir. Shoirning "Go'zal", "Sezgi", "Sirlardan", "Men shoirmi?" kabi she'rlari barmoq vaznida yozilgan bo'lib, "go'zal" she'rida quyidagi misralar keltirilgan:

Men yo'qsil na bo'lib uni suyibmen?!

Uning-chun yonibmen, yonib-kuyibmen,

Boshimni zo'r ishga berib qo'yibmen,

Men suyib...men suyib kimni suyibmen?

Men suygan "suyukli" shunchalar go'zal,

Oydan-da go'zadir, kundan-da go'zal!..

Yuqorida keltirilgan she'riy parchadan ko'rinib turibdiki, Cho'lpon shaxsiy hissiyot shoiri emas balki, ijtimoiy hissiyot shoiridir. Uning she'rlaridagi asosiy g'oya millati ozod, xalqi ma'rifatli bo'lishidadir. Buni shoirning "Tong" she'rida ham ko'rishimiz mumkin:

"Uyg'on, - dedim, - to'lg'on, - dedim, - ey sharq,

Zanjirlarni uzish vaqti keldi.

Erk olishga vaqtlagan bodi,

Shuning uchun to'lqinlandi ko'p xalq.

Bu kun kurush, talashdurkim, bundan

Yengib chiqqan bir umrlik erkin.

Yengilganlar bu kurashda lekin

Yo'q dunyoga sururlar eldan!"

Abdulhamid Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romani orqali o‘zbek romanchiligiga munosib hissa qo‘shdi. Asar ayniqsa, real hayotga yaqinligi, davrning ayanchli ahvoli hamda turmush tarzi yoritib berilganligi bilan hali-hanuzgacha qiymatini yo‘qotmagan. Jadidlarga qarshi boshlangan kompaniya faoliyati davomida Abdulhamid Cho‘lponni ham chetlab o‘tmadi. Adib taqib ostiga olindi va ko‘plab asarlari yo‘q qilib yuborildi. Taqiblarga qaramay shoir Moskvaga borib tarjimonlik qildi. Rus va boshqa xalq shoirlari Aleksandr Pushkinning “**Boris Godonov**”, “**Dubrovskiy**”, Nikolay Gogolning “**Tergovch**”, I.S.Turgenovning “**Cho‘ri qizi**”, I.Franko “**Million**”, “**Feruza**”, L.Andreyevning “**Gubernator**”, “**Osilgan yetti kishining hikoyasi**”, A.P.Chexovning “**Qochoq**”, A.M.Gorkiyning “**Ilgaklar**”, “**Ona**” kabi mumtozlar asarlarni yuksak mahorat bilan tarjima qilib milliy tarjima maktabiga asos soldi.

Oz sonli umri davomida faqat va faqat xalqini ma‘rifatli, millatini hur, vatanini mustaqil ko‘rishni xohlagan Abdulhamid mulla Sulaymonqul o‘g‘li Cho‘lpon **1937-yil** xalq dushmani sifatida qamoqqa olindi, **1938-yil 4-oktabrda** hech qanday xujjatsiz qatl qilindi. Uning hukmi esa ertasi **5-oktabr** kuni e‘lon qilindi. Xulosa o‘rnida har bir yosh avlod Abdulhamid Cho‘lponni bilishi va uning asarlarini mutolaa qilishi lozim. Negaki ozod, hur, mustaqil O‘zbekistonimizga o‘z-o‘zidan erishganimiz yo‘q!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jadidlar to‘plami, Abdulhamid Cho‘lpon, Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent-2022.
2. Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon, “She‘rlar, hikoyalar, she‘riy va nasriy tarjimalar”. “Zabarja media”, 2022-yil.
3. Abdulhamid Cho‘lponning she‘rlari 1-kitob, 2021-yil.
4. Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani 2-kitob, 2021-yil.